# TALABALARNI ILMIY VA KASBIY FAOLIYATGA YO`NALTIRISH VA TAYYORLASH AKMEOLOGIYASINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

***J.M. Shukurllayev***
*ChDPU p.f.f.d. (PhD), dotsent v/b.*
***Sh.Sh.Sayfulloyeva , G.X. Erkinova***
*ChDPU Jismoniy madaniyat HQS 23/1guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo'naltirish va tayyorlash akmeologiyasining didaktik imkoniyatlari va bosqichlari bo'yicha ko'rsatma va takliflar mavjud.

**Kalit so‘zlar:** Yo'nalish, sifat, akmeologiya, talaba, mukammallik, mahsuldorlik, professionallik, yuksalish.

Zamonaviy yondashuvlar asosida yoshlarning aqliy va jismoniy sifatlarini rivojlantirish jamiyatda sog‘lom avlodni voyaga etkazishning asosiy sharti sifatida qaralmoqda.

Darhaqiqat Respublikamizda bu borada bir qator tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ta’limiy innovatsiyalarga moslashuvchan va jamiyatning zamonaviy talablariga javob beradigan talaba-o‘quvchi shaxsini tarbiyalashga doir qator yuksak ishlar bajarilmoqda. Binobarin, yoshlarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish orqali oliy ta`lim muassasalarida olingan nazariy bilimlarning real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashning eng oqilona usul va yo‘llarini ishlab chiqish zarurati tobora ortmoqda. Zamonaviy yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan barqaror munosabatni qaror toptirish, xususan, amaliy fanlarning gorizontal va vertikal integrasiyasini ta’minlash, yoshlarning aqliy va jismoniy sifatlarini rivojlantirish orqali ularda milliy dunyoqarash, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish ma’nan kuchli va jismonan baquvvat kadr shaxsini tarbiyalashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqishga katta e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda umumiy o‘rta va oliy ta’lim sifatini oshirish, yoshlarning ma’nan etuk va jismonan barkamol shaxs sifatida voyaga etishini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, pirovardida, davlat va jamiyat ravnaqi va xalq farovonligiga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yilning 19 mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektorda 5 ta muhim tashabbusni ilgari

surgan edi. Mazkur tashabbuslar yoshlarni qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning mazmunida ta’lim sohasida yoshlarni intelektual rivojlanishi uchun yangidan-yangi modernizatsiyalashgan metodlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan va hukumat tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar uzluksiz ta’limda aqliy va jismoniy sifatlari rivojlangan, ijtimoiy faol, ma’naviyati etuk bo‘lgan shaxsni shakllantirish va yuqori malakali yoshlarni ildam tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlash akmeologiyasining ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat: salomatlik va jismoniy barkamollik qadriyatlaridan xabardorlikning yuqori darajasi, muntazam jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan ehtiyoj, maxsus bilimlar, jismoniy fazilatlarni rivojlantirish, texnik harakatlarni shakllantirish va jismoniy yutuqlarni ta’minlaydi. Akmeologik ko‘rsatkichlari esa:

- ilmiy va kasbiy g`oyalarning salomatlik darajasi;
- aqliy va jismoniy tayyorgarlik;
- ob’ektiv yoki sub’ektiv yuqori yutuqlar;
- vosita va usullardan ijodiy va ijobiy foydalanishlar kiradi.

Bu Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga maksimal darajada tarbiyalash, takomillashtirish uchun akmeologik metodlar va tamoyillardan unumli foydalanish zaruratini tug‘diradi.

Natijada kognitiv, verifikatsiya, didaktik, diagnostik va aslida akmeologik determinantlar to‘plamini amalga oshirishda jismoniy tarbiya doirasida akmeologik muhit yaratiladi. Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va shakllantirishda ameologik yondashuvning metod va tamoyillari muhim ahamiyatga ega.

Aniqlangan ko‘rsatkichlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish hamda shakllantirishda akmeologik yondashuvning metodik jihatlarini amaliyotga tatbiq etishda mutaxassislarning kasbiy layoqatlarini, kasbiy kometensiyalarini rivojlantirish masalasiga alohida e’tiborni qaratish lozim. Shuningdek, Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlash jarayoni murakkab bo‘lib, u bir qator psixologik akmeologik-pedagogik shart-sharoitlar va omillarni talab etadi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlash hamda shakllantirishda amalga oshirilayotgan harakatlar majmui, pedagogik va psixologik, shuningdek, anotomik hamda fiziologik jihatlarni ham bir vaqtning o‘zida qiyoslash imkoniyatini yaratib beradi. Buning natijasida akmeologik yondashuv asosida ilmiy va

kasbiy faoliyatining bir maromda kechishini, unda qo‘llanilgan metod, vosita, shakl va tamoyillarni bir butun qolibga solishga imkon beradi.

Akmeologik yondashuv – ilmiy va kasbiy faoliyat darajasining eng yuqori ko‘nikma va malakalarga erishishi hisoblanib, zamonaviy ta’lim jarayonida akmeologik yondashuvning mohiyati, Talabaning ilmiy va kasbiy faoliyatini kuchaytirish, bajarilgan harakatlarini tahlil qilish, shaxsiy imkoniyatlarini aniqlash va undan samarali foydalanish bilan belgilanadi. Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlashda albatta uning tamoyillari va metodlarini amaliyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlashda akmeologik yondashuv, harakat faoliyatini o‘rganilayotgan ilmiy va kasbiy faoloyatga yo‘nalganlikni hosil qiladi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlashda akmeologik yo`naltirilganligi - bu integrativ sifat bo‘lib, u o‘z ichiga o‘quvchining faolligini va uning vektori asosini aniqlovchi maqsad, qadriyatlar, motivlar, intilishlar va boshqalarni qamrab oladi.

Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlashda akmeologik yo‘nalganlik – ilmiy faoliyat sohasida ham, kasbiy faoliyati sohasida ham maksimal darajada o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishga, ilg‘or rivojlanishga yo`naltiruvchi tavsifi hisoblanadi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidalash mumkinki, Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga yo`naltirish va tayyorlash jarayoni- Professor o‘qituvchi va Talaba o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni va mustaqil-ijodiy munosabatlarni, kasbiy va ilmiy ta’lim mazmunini hamda barkamol shaxs tarbiyasi va uning ijtimoiy aspektlari asosida modernizatsiyalashdir. Pedagogik jarayonda ilmiy va kasbiy faoliyat yangi maqsad, mazmun, metod, shakl va usullarning kiritilishi, Professor o‘qituvchi va Talaba hamkorligida tashkil etilishidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jismoniy tarbiya va sport jurnali. 2018.

2. Shukurllayev J.M. Voleybolga yosh talabalarni tanlashning uslubiy xususiyatlari. ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. № 1. 2020 yil 2 oktyabr.

3. Mirxojidinovna, Xudoynazarova Gullola, TolibjonovSardorbek Ravshan o'g'li, and AhmadjonovAbdurahmon Ahmadjon o'g'li. "HARAKATLI O’YINLAR HAMDAULARDANFOYDALANISH SHARTLARI." ОБРАЗОВАНИЕНАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ ВМИРЕ 16.4 (2023): 104-109.

4. Ravshan o'g'li, Tolibjonov Sardorbek. "JISMONIY MASHQLAR TAVSIFI." (2023): 45-51.

5. Mirxojidinovna, Xudoynazarova Gullola, Axmadjonov Abduraxmon, and TolibjonovSardorbek Ravshan ogli. "PHYSICAL EDUCATION CLASSES AND THEIR TEACHING PRINSPI." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 604-607.

6. Ravshan o'g'li, Tolibjonov Sardorbek, and Xudoynazarova Gullola Mirxojidinovna. "HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 23.5 (2023): 42-47.

7. Ravshan o'g'li, Tolibjonov Sardorbek, and Xudoynazarova Gullola Mirxojidinovna. "O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHILARNING TEXNIK TAKTIK TAYYORGARLIGINI NAZORAT QILISH." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА ИИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 23.5 (2023): 33-36.

8. Ravshan o'g'li, Tolibjonov Sardorbek, and Xudoynazarova Gullola Mirxojidinovna. "O'RTA VA UZOQ MASOFALARGA YUGURISH TEXNIKASI." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА ИИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 23.5 (2023): 37-41.

9. Tahirjonovich, Arabboyev Kahramon. "Matters of physical education in kaikous'"QABUSNAMA"." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.1 (2023): 223-226.

10. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Arabboev Qahramon Tokhirzhonovich. "Features Of Physical Education Of Preschoolers." International Journal of Early Childhood Special Education 15.2 (2023).

11. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўкув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.

12. Arabboyev, Qahramon. "Madaniy me'roslarimizda jismoniy tarbiya masalalari." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 6 (2023): 643-648.

13. Muratova, G. R., and Q. T. Arabboyev. "The role of sport in people's health." International Journal of Early Childhood Special Education 14 (2022).

14. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.

15. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Atadjanov Asadbek Baxtiyor o'g'li. "IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE AEROBICS PROGRAM FOR FEMALE STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 38-41.

16. Муратова, Гулнара Рашитовна. "История древней и современной лёгкой атлетики." Ученый XXI века 20 (2016).

17. Muratova, G. R. "MODERN REQUIREMENTS FOR THE CREATION OF EDUCATIONAL PUBLICATIONS ON PHYSICAL EDUCATION FOR SECONDARY SCHOOLS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 1-4.

18. Муратова, Гулнара Рашитовна. "УКРЕПЛЕНИЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА ЧЕРЕЗ ЗАНЯТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ." INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS.. Vol. 2. No. 7. 2023.

19. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.

20. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat. "Analysis Of The Paradigm Of The Principles Of Overcoming The Problems Of Productivity Of Researchers Conducting Research In The Field Of Physical Culture." Journal of Positive School Psychology (2023): 529-534.

21. Умаров, Абдусамат, and Махлиёхон Хожимуродова. "OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.6 (2023): 313-317.

22. Urinbaevna, Umarova Zulxumor, and Umarov Abdusamat Abdumalikovich. "THE IMPORTANCE OF TRAVEL AND TOURISM IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN HIGH SCHOOL STUDENTS." Open Access Repository 9.10 (2023): 1-7.

23. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat, and Umarova Zulxumor Urinboyevna. "THE USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN

IMPROVING THE QUALITY OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 421-424.

24. Umarov, Abdusamat, and Layloxon Maxmudova. "AHOLINING TURLI QATLAMLARINI DAM OLISH MASKANLARI VA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TADBIRLARINING AHAMIYATI." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 726-731.